

“Navoiyazot” Ajda ko'kalamzorlashtirish ishlari

// 23.11.2023

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/navoiyazot-ajda-ko-kalamzorlashtirish-ishlari>



“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida “Navoiyazot” Ajda kuzgi ko’chat ekish tadbirlari davom etmoqda. Xayrli tashabbusda faol ishtirok etish uchun jamiyat hududida 6 gektardan ortiq yer maydoni tanlab olinib, mavsum davomida 20 ming tup daraxt ekish rejalashtirilgan.



Belgilangan reja asosida 3500 dona gujum, 16500 dona tut ko'chatlarini ekish ishlari olib borilyapti. Bu tadbirlarga 300 nafarga yaqin xodim jalb etilgan.



Korxonada "Yashil makon"larning tashkil etilayotgani ekologik muhit musaffoligiga munosib hissa

bo'lib qo'shiladi.

"NAVOIYAZOT" AJ AXBOROT XIZMATI